

EKSKURSIYA XIZMATINI TURIZMDAGI O'RNI

Jo'raboyeva Fotima Zafarjon qizi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti

Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati 2- bosqich talabasi

Anotsatsiya: Turizm hozirgi davrda keskin rivojlanib kelayotgan sohalardan biri bo'lib, turizmda ekskursiya xizmatining o'rni beqiyos. Ekskursiya xizmatini tashkillashtirish orqali mamlakatga tashrif buyurgan turistlarga davlatning madaniyati, e'tiqodi, dini va dunyo qarashi to'risidagi taassurotlarini yanada chuqur o'rganishga yordam beruvchi muhim omillarda biri sanaladi. Ushbu maqolda ekskursiya hizmatini turlari va funksiyalari tadqiq qilindi

Kalit so'zlar: Gid portifeli, Qadamjolar, madaniy meros, Targ'ibot, Shahrисабз, Ko'rgazmali.

Mamlakatimizda tashrif buyurish mumkin bo'lgan tarixiy va madaniy obidalar talaygina bo'lib, bunday turdag'i qadamjolarga ekskursiyalarni tashkil qilish va ekskursiya sifatini yanada yaxshilash bu tarixiy merosimiz bo'lgan obidalar va diqqatga sazovor joylar haqida turistlarga yanada ko'proq malumotlar berish va ekskursantlar sayohatini yanada mazmunli o'tishiga kata hissa qo'shuvchi omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda daromad manbayi hisoblangan turizm sohasining bir bo'lagi hisoblangan ekskursiya xizmatiga mamlakatimizda katta e'tibor berilib kelmoqda. Hech kimga sir emaski, mamlakatga tashrif buyurgan turist eng avvalo davlatning taxrixi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, va tabiat resurslari bilan tanishishni va tashrif buyurgan joylari haqida to'liqroq malimot olishni hoxlaydi. Ekskursiya o'zining ko'rgazmaliligi sermazmuniyatligi va hissiyotliligi bilan insonlarning ruhiy qiyofasini shakillanishiga ta'sir o'tkazadi.

Ekskursiya xizmatlari quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi :

- 1) Dam olish
- 2) O'quv
- 3) Ilmiy
- 4) Umumiyy ta'limiy
- 5) Madaniy ta'limiy
- 6) Madaniy tarbiyaviy

Shuni aytib o'tishimiz lozimki, hozirgi kunda davlatimizda ekskursiya xizmatini tashkil qilishda ko'plab baxs munozaralarga duch kelmoqdamiz. Shuning uchun ham turizm sohasi vakillarini bandligini, huquqiy asoslarini mustahkamlashda

Prezidentimizning 2021- yil 9- fevraldag'i (O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida)gi G -165-son farmoni muhim ahamiyatga ega. Mazkur farmon bilan turizm sohasiga kiruvchi har qanday kasb turi o'z- o'zini band qiluvchi shaxslar sifatida kiritildi. Oldingi kunda gidga kasb sifatida qaralmagan bo'lsa, hozirgi kunda kelib u alohida kasb sifatida shakillanib ulgurgan sohaga aylangan. Buning sabablaridan biri ekskursiyani tashkillashtirish va uni sermazmun o'tkazish gidning zimmasidagi vazifaga kiradi. Profissional gid ekskursantlarga to'liq va sermazmun o'tkazish uchun ekskursiya hizmati funksiyalarini to'liq mukammal bilishi lozim bo'ladi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Ilmiy targ'ibot
2. Axborot
3. Madaniy hordiqni tashkil etish
4. Qiziqishlarni shakillantirish
5. Madaniy hordiqni kenggaytirish

Bizning mamlakatizmiz O'rta Osiyoda joylashgan qadimiylar tarixga ega davlatlardan biri bo'lganligi sababli ekskursiya xizmatiga muhtoj davlat hisoblanadi. Mamlakatimizda diqqatga sozovor joylari bo'lgan Buxoro, Samarqand, Hiva, Shahrisabz kabi shaharlardagi ekskuriya tashkillashtirish zarur bo'lgan obidalar talaygina. Misol uchun, Shahrisabdagi Oq saroy, ko'k gumbaz masjidi, Dorut saodat hotira maydoni kabi buyuk qadamjolarga shunchaki tashrif buyurish orqali o'sha zamonning madaniyati, tarixi va kelib chiqishini o'rganish juda murakkab. Shuning uchun ham bu turdag'i sayohatlar maxsus tayyorlangan ekskursiya tomonidan gid hamrohligida olib boriladi. Ekskursiya hizmatini tayyorlashda esa bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. Bu birinchi marotaba 1976- yilda amaliyotda qo'llanila boshlagan. Ular quyida asosiy 7 bosqichga ajraladi

1. Ekskursiya maqsad va vazifasini aniqlash
2. Ekskursiya hizmati mavzusini tanlash
3. Ekskursiya obyektlarini tanlash va o'rganish
4. Gid portfelini tanlash
5. Sinov ekskursiya o'tkazish
6. Ekskursiya matnini tayyorlash
7. Ekskursiya hizmatini tastiqlash

Hulosa qilib aytganda , ekskursiya xizmatini tashkil qilish, turizm sohasidagi muhim ahamiyatga ega va ajralmas qismi bo'lib, U sayohatni sermazmun va ko'ngildagidek o'tishiga yordam beruvchi omildir. Shuning uchun ham hozirda butun dunyoda ushbu sohani rivojlantirish uchun va malakali kadrlarni yaratish uchun har bir



davlat oliy ta'lim muassasalari Gid sohasida o'quvchilarga ushbu sohada malakali ta'lim berib kelmoqda shu jumlayi nazardan, O'zbekiston ham.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ichki va ziyorat turizmini yana rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi G- 165-sonli farmoni
2. Amriddinova R.S << Ekskursiya ishini tashkil etish>> Samarqand 2008 . 88b
3. Axmedova X.I, Allabergenov A.A << Turizm faoliyatini tashkil etish >> T: 2004
4. Tuxliyev I.S, Tursunova G.R << Ekskursiya xizmatini tashkil qilish >> Toshkent. 2018

